

ABU NASR FAROBIIY QARASHLARIDA INSON VA UNING BAXTGA ERISHISH YO'LLARI

Abdulfattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistranti

abdufattoyevashahrizoda@gmail.com

M. Qodirov

Ilmiy rahbar: Sharq falsafasi va madaniyati

kafedra dotsenti, f.f.n.

ANNOTATION

This article reflects the philosophical ideas of Abu Nasr Farabi, who is considered one of the great thinkers of the Eastern world, about man and happiness, and his ideas about the ways to achieve happiness. In this way, Farabi's concepts of eternal and general happiness were analyzed.

KEYWORDS. Abu Nasr Farabi, existence, happiness, human, perfect human, eternal happiness, general happiness, good qualities, bad vices, active mind, divine spirit, "Wajib ul-Wujud", Plato, idealism.

ANNOTATSIYA

Ushu maqolada Sharq olamining buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblangan Abu Nasr Forobiyning inson va baxt to'g'risidagi falsafiy g'oyalari, baxtga erishish yo'llari haqidagi tasavvurlari aks etgan. Shunindek, Forobiyning abadiiy va umumiy baxt to'g'risidagi konsepsiyalari tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR. Abu Nasr Forobiy, borliq, baxt, inson, komil inson, abadiiy baxt, umumiy baxt, ezgu fazilatlar, yomon illatlar, faol aql, ilohiy ruh, "Vojib ul-vujud", Platon, idealizm.

KIRISH

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning boy ilmiy me'rosi nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham katta qiziqish bilan o'rganiladi. Uning ijtimoiy-axloqiy, falsafiy-gnoseologik, qarashlari o'zidan keyingi musulmon faylasuflari uchun asosiy yo'riqnoma bo'lib xizmat qilgan. Ushbu maqolada Forobiyning axloqiy-falsafiy g'oyalari, komil inson g'oyasi va baxtga erishish yo'llari haqida so'z boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning "Aflotun qonunlari mohiyati haqida" va "Fozil odamlar shahri" asarlaridan asosiy manbaa sifatida, qolaversa, turk olimi Mahdi Muhsinning "Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy" asaridan qo'shimcha manbaa sifatida foydalanildi. Mazkur maqolada ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez va obyektivlik metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Forobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq to'g'risida yaratgan yaxlit ta'limoti ilk o'rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning

qarashlari Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. O'rta asr mutafakkirlari Ibn Xallikon, Ibn al Kiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun va boshqalar Forobiy ta'limotini chuqur o'rganib, uni yangi g'oyalar bilan boyitganlar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Dovoniy Farobiyning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy ta'limotidan bahramand bo'lganlar.

Forobiy ilgari surgan fikrlar XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o'rganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotida sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Baxtga, Forobiyning fikricha, mavjud narsalar haqidagi barcha bilimlarni egallash, ularning mohiyatini, paydo bo'lish va halokat sabablarini o'rganish orqali erishiladi, bu esa pirovardida hamma narsaning mohiyati va asl sababini bilishga olib keladi. "Baxt mutlaq yaxshilikdir".

Baxt, Forobiyning fikricha, insonning o'limidan keyin ham, ma'lum bir avlod yo'q bo'lib ketganidan keyin ham insoniyatga xizmat qilishi mumkin bo'lgan mukammal bilim va yuksak axloqiy mezonlarga erishishdir. Baxt insonga o'zidagi barcha yovuz hislatlarni yo'q qilganda hamda inson ruhi va aqli bilimidagi eng yuqori darajaga - abadiy dunyo aqli bilan qo'shilganda keladi. Inson halok bo'ladi, lekin uning hayoti davomida erishgan baxti ma'naviy va ulug'vor hodisa bo'lib, yo'q bo'lib ketmaydi, balki undan keyin ham qoladi. Har bir isondan qolgan yaxshilik esa umuminsoniy ma'naviy madaniyatni yanada rivojlantirish va yuksaltirishga o'ziga xos hissadir.

O'limdan keyin komillikka erishga insonlarning ruhlari ozod bo'ladi va abadiy aql bilan birlashadi va shu orqali abadiy baxtga erishadi. Abadiy baxtga erishga komil insonlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, ularning umumiy baxti shunchalik katta bo'ladi. Jismdan uzoqlasha olmagan yovuz ruhlari esa u bilan birga halok bo'ladi. Baxtga erishgan inson qalblari bir-biri bilan birlashadi va shu orqali umuminsoniy baxt, keyingi avlodlarga xizmat qiladigan ezgu fazilatlar kuchayadi. Har bir avlod ortda umumiy baxtga qo'shib, uni boyitib, to'ldiradigan, avlodlar hayotini yengillashtiruvchi qimmatli va ulug'vor madaniyatni qoldiradi. Bular Forobiyning faol aql va umumiy baxt haqidagi ta'limotining asosiy g'oyalaridir.

Forobiy Aristotelning "Etika" asariga yozgan sharhida uning baxt to'g'risidagi tushunchalariga ta'rif beradi. Aristotel o'z asarida "Eng oliy yaxshilik faqat bizning dunyoyimizdadir va faqat aqldan ozganlar uni yer dunyosidan tashqarida deb hisoblashadi", deb yozgan. Faylasufning bu qarashlarini islom dinining jannat hayoti haqidagi ta'limoti bilan taqqoslab bo'lmaydi. Aristotel inson baxtiga faqat mana shu yerdagi hayotda erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Forobiy Aristoteldan farqli ravishda baxtga keyingi dunyoda erishiladi deb hisoblaydi. Bu dunyoda esa Ana shu ulug' va abadiy baxtga erishish uchun komillik sari intilib yashashi, o'zini tarbiyalab borishi kerak deydi. Biz bu dunyoda keyingi dunyoda abadiy baxtga erishish uchun ezgu amallar bilan band bo'lishimiz kerak. Ba'zi bir kofirlar buni islomda bu dunyoda baxtga o'rin yo'q, islom insonning erkinligini chegaralaydi deb hisoblashadi. Aslida esa dinda buyurilgan ezgu amallar bilan yashashning o'zi insonda baxt hissing uyg'otadi. Shariatga amal qilib yashagan insonning har bir ishi ezgulik bilan yakun topadi. Bu ikki dunyoda ham baxtga erishish emasmi?

Shunday qilib, baxt, Forobiyning fikricha, ruhiy tajriba sifatida shaxsning eng yuqori ehtiyojlari qondirilganda paydo bo'ladi. An'anaga ko'ra, insonning eng yuqori ehtiyojlari falsafa, san'at, din, shuningdek, axloqiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ishtirok etish orqali qondirilgan. Demak, baxt

nima degan savolga aynan falsafa javob bera oladi. Baxt haqidagi Sharq va G'arb falsafasidagi tushunchalar o'rtasidagi farqlarni ham aytib o'tish kerak. Sharq xalqlari al-Forobiy kabi bilimni hamma narsadan avvalo qadrlaydi, uni eng oliy ezigulik, baxtga erishishning yagona haqiqiy yo'li deb biladi. Boshqacha aytganda, Sharq baxtga ma'naviy qadriyat sifatida qaraydi.

Farobiyning g'arblik zamondoshlarning baxt muammosiga munosabati ko'proq materialistik edi: baxt tushunchasi moddiy ne'matlar kabi o'ziga xos narsalar, ularga erishish va egalik qilish baxt sifatida qabul qilinadi. Zamonaviy falsafa uchun o'tmishning eng buyuk mutafakkirlarining baxt muammosi haqidagi qarashlarini tushunish, ular asosida o'zlarining "baxt falsafasini" yaratish muhimdir.

"Biz baxtga go'zallik o'zimizga xos bo'lgandagina, go'zallik esa falsafa san'ati tufayligina bo'lsa, baxtga erishamiz", bundan kelib chiqadiki, biz baxtga falsafa tufayli erishamiz. Faylasuflar qolgan odamlarga baxt yo'lini ko'rsatishi mumkin, shuning uchun ular jamiyatga shahar rahbarlari sifatida kerak.

Forobiy o'z asarlarida inson baxtga erishish uchun eng avvalo bu dunyoga nima uchun kelganini anglashi deb uqtiradi. Buning uchun esa o'zi yashayotgan olamning umumiy qonunlaridan boxabar bo'lishi kerak. Birinchidan, inson bu olamning asliy sababini va uning barcha sifatlarini bilishi zarur. So'ng moddiylikdan tashqarida mavjud narsalarni va ularning sifatlarini, shuningdek ularni faol aqlga qadar bo'lgan darajalarini hamda ularda har birining sifatlarini bilishi zarur. So'ng samoviy hilqatlarni va ulardan har birining sifatlarini, so'ng shu hilqatlardan pastdagi tabiiy jismlarni, shuningdek, ularni qanday vujudga kelishi va yo'qolishi hamda ularda yuz berayotgan barcha hodisalarni mukammaligi, yaxlitligi, muruvvat, adolat bilan, oqilona ekanligini, bu hodsalarda hech bir nuqson, hech bir adolatsizliklar yo'qligini bilishi zarur.

Inson mukammallikka erishishi uchun odamzod qanday yaralganini (uning jismiga kirgan) ruhning hususiyatlarini, faol aql uning ruhini qanday qilib nurlantirganini, shu tufayli insonda dastlabki tushunchalar paydo bo'lganini bilishi zarur. Shuningdek, inson Allohning irodasi va insonda mavjud bo'lgan iroda erkinligi o'rtasidagi farqni bilishi zarur. Komil inson shahar (davlat) ning birinchi rahbari u yoki bu vaqt mobaynida yo'q 8 qolganida (safarga ketganida, kasalligida va hokazo), uning o'rnini bosa oladigan rahbarlarni bilishi zarur. Qolaversa, inson o'zi erisha oladigan baxt – sodat nima ekanligini bilishi zarur. U insonlar o'lganidan so'ng ruhlari oxiratda ne kechishini, ba'zilar bahtsizlik, falokatga uchrab, ba'zilar yo'q bo'lib ketishini, fozillar shahri aholisi ohiratda nelarga erishuvini, nelardan saqlanishlarini bilishi zarur, deb hisoblagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Forobiy baxtni ikki turga ajratadi. Yer yuzidagi baxt hamda Ilohiy baxt. Forobiy fikricha, inson yer yuzidagi baxtga abadiy baxtga intilish jarayonida erishadi. Abadiy baxt esa inson komil insonga aylanganda uning faol aqli va ruhi "Vojib ul-vujud" ruhi bilan qo'shilganda paydo bo'ladi. Inson komil insonga aylanishi uchun esa avvalo o'zini anglashi, ruhini go'zal fazilatlar bilan tarbiyalashi, dunyoning abadiy qonunlaridan boxabar bo'lishi lozim. Forobiy bu g'oyalari orqali islom dinining ijtimoiy-axloqiy ta'limoti hamda Aflotunning ideologik qarashlarini muvozanatga keltirganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Aflotun qonunlari mohiyati haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 180 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Arastu falsafasi. // Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T. Xalq merosi. 1993. – 330 b.
3. Xayrullayev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. – T.: Fan, 1993. – 274 b.
4. Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – 200 с.
5. Касымжанов А.Х. Абу Наср Аль Фараби. - М.,: Мысль. 1982. - 232 с.
6. Л.А.Комаров. Понимание счастья в философских воззрениях Абу-Насра Мухаммада Аль-Фараби. - М., 2010. –132с.
7. Adamson, Peter. In the age of Al Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2) – L.: Press, 2011. – 247 p.
8. Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: The University of Chicago Press, 2011. – 298 p.
9. XXI World Congress of Philosophy. Abstracts. – Istanbul: Turkey, 2003. – 444 p.